

Psixologiyada shaxs va jamiyat muammolari

Reja:

- 1. Shaxs xakida tushuncha.*
- 2. Ijtimoiy normalar, sanktsiyalar va shaxs.*
- 3. Shaxs va uning faolligi.*
- 4. Shaxsning shakllanishi va shaxslararo munosabatlar.*

Psixologiyada shaxs va jamiyat muammolari

Shaxs - ijtimoiy va shaharlararo munosabatlarning maxsuli, ongli faoliyatining sub'ekti bo'lmish individdir. Shaxsga tallukli bo'lgan eng muxim tasniv xam uning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga bevosita aloqadorlik, ijtimoiy faoliyatga nisbatan xam ob'ekt, xam sub'ekt bo'lishlikdir.

«Shaxs» tushunchasi psixologiyada eng kup kullaniladigan tushunchalar sirasiga kiradi. Psixologiya urganadigan barcha fenomenlar aynan shu tushuncha atrofida kayd etiladi. Inson ruxiy olami qonuniyatlari bilan kizikkan xar kanday olim yoki tadjikotchi xam shaxsning ijtimoiyligi va aynan jamiyat bilan bulgan aloqasi masalasini chetlab utolmagan

Sotsial yoki ijtimoiy muxit - bu insonning aniq maksadlar va rejalar asosida faoliyat kursatadigan dunyosidir. Mazmunan xar bir insonning shu ijtimoiy olam bilan aloqasi uning insoniyat tajribasi, madaniyati va kabul kilingan, tan olingan ijtimoiy xulk normalari doirasidagi xarakterlarida namoyon buladi. Psixologiya ilmining namoyondalari bulmish olimlarning butun bir avlodi ana shu shaxe va jamiyat aloqalari tizimida insonning tub moxiyatini anglash uning rivojlanishi va kamol topishi qonuniyatlarini izlaganlar. Abu Nasr Farobiy, Ayu Navoiy, Ibn Sino, Beruniy kabi yuzlab Shark allomalari xam bu uzaro boglikning falsafiy va ijtimoiy sirlarini ochishga uzlarining eng durdona asarlarini bagishlaganlar. Barcha karashlarga umimiy bulgan narsa shu bulganki, odamni, uning moxiyatini anglash uchun avvalo uning shu jamiyatda tutgan urni va mavkeini bilish zarur.

G. Leybnits (1646-1716) Lokka e'tiroz bildirib, xayotda umuman toza. sof doskaning uzi bulmaydi, xattoki, eng yaxshi silliklangan marmar yuzasida xam sezilarli teshiklar, dungliklar yoki tugma asoratlar buladiki, ular layokatlardek, inson takdrida ma'lum rol uynaydi. Bu ikala yirik yunalish urtasidagi tortishuvlarga chek kuyish maksadida F. Galton kator eksperimental tadjikotlar utkazib, xar bir individga xos differentsial xususiyatlar mavjudligini «egizaklar metodi» yordamida asoslashga

xarakter kildi. 2 jadvalda Galton tomonidan irsiy ortirilgan sifatlar munosabati yuzasidan aniqlangan natijalardan keltirilgan.

Inson jamiyat a'zosi sifatida uning normalariga buysunadi, uning kutishlariga javob berishga xarakter kiladi va uz xulqini uning talablariga monand kilishga intiladi. Shu nuqtai nazardan kelib chikib, shaxe fenomeniga ta'rif berish mumkin.

Shaxs - ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning maxsuli, ongli faoliyatning sub'ekti bulmish individdir. Shaxsga tallukli bulgan eng muxim tasnif xam uning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga bevosita aloqadorlik, ijtimoiy faoliyatga nisbatan xam ob'ekt, xam sub'ekt bulishlikdir.

Shaxsga tallukli bulgan fazilatlardan eng muximi shuki, u shu tashki, ijtimoiy ta'sirlarni uz ongi va idroki bilan kabul qilib (ob'ektni), sungra shu ta'sirlarning sub'ekti sifatida faolyait kursatadi. Oddiy qilib aytganda, inson bolasi ilk yoshlikdanok «mening xayotim». «Bizning dunyo» degan ijtimoiy muxitga tushadi. Bu muxi tusha biz bilgan va xar kuni xis kiladigan siyosat, xukuk, axlok olamidir. Bu muxit - kelishuvlar, tortishuvlar, xamkorliklar, an'analar, udumlar, turli xil tillar olami bulib, undagi kuplab koidalarga kupchilik mutlok kushiladi, ba'zilar kisman kushiladi. Bu shunday koidalar va normalar olamiki, ularga buysunmaslik jamiyat tamonidan koralanadi, ta'kiklanadi. Shulardan kelib chikadigan xulosa shuki, shaxe jamiyat nisbatan barcha tartib - koidalarga kabul kiluvchi sub'ekt bulsa, jamiyat ijtimoiy intizom va tartibning, madaniyatning mufassal kurinishidir.

Shaxe turli ijtimoiy munosabatlar tizimi ta'sirida buladi va kuplab ijtimoiy institutlar (oila, maxala, ukuv maskanlar, mexnat kollektivlari, norasmiy tashkilotlar, din, san'at, madaniyat va boshkalar) bilan boglik buladi. Masalan, shaxsdagi turli goyalar, fikrlar va mafkura mafkuraviy munosabatlar tizimi ta'sirida shaklanib, ular bevosita oila, bogcha, maxala maktab va boshka ukuv va tarbiya muassasalari orkali onnga singdiriladi. Agar bu ta'sir uning e'tikodi darajasida ko'tarilsa, va unda Yana yangidan-yangi fikrlar va goyalarning paydo bulishi va usishiga olib kelsa, shaxe taraqqiyoti jarayonida shunday faolyait soxasini tanlaydiki, u uz kobilyatlari, malaka va kunikmalarini rivojlantira borib, ziyoli sifatida yo uktuvchi, yoki vrach, yoki olim, kashfiyotchi, muxandis bulib, zlu yurtiga xizmat kiladi.

Iktisodiy munosabatlar xam shaxe ongi va uning insoniy xususiyatlari shaklanishida katta rol' uynaydi. Masalan, boskichma-boskich bozor munosabatlariga o'tayotgan Uzbekistan sharoitini oladigan bulsak, yangicha iktisodiy uzgarishlar, bozor, rakobat, legalizatsiya, ya'ni erkinlashtirish va shunga uxshash yangiliklar xar bir shaxsning moddiy boyliklar va ularga bulgan shaxsiy munosabatlarida aks etib, uning iktisodiy ongi, tafakkuri va iktisodiy xulki normalarini belgilaydi.

Ijtimoiy normalar, sanksiyalar va shaxs. Ijtimoiy norma- shaxe xayotida shunday kategoriyaki, u jamiyatning uz a'zolari xulk atvoriga nisbatan ishlab chikkan va kupchilik tamonidan e'tirof etilgan xarkatlar talablaridir. Masalan, uzbeklar uchun biror xonaga kirib kelgan insoning Kim bulishidan kat'iy nazar, «Assalomu alaykum» deb kelishi - norma; ukuvchining ukutuvchi bergan topshiriklarini bajarishi lozimligi - norma; avtobusda yoki boshka jamoat transportida kichikning kattalarga, nogironlarga urin bushatishi - norma va xakazo. Bu normalarni ayrim- aloxida odam ishlab chikilmaydi. Ularning paydo bulishi ijtimoiy tajriba, xayotiy vaziyatlarda kupchilik tamonidan e'tirof etilganligi fakti bilan xarakterlanadi, xar bir jamiyat, davr, millat va ijtimoiy gurux psixologiyada muxrlanadi.

Ijtimoiy normalarning u yoki bu davrda, u yoki bu toifa vakili bulmish shaxe tamonidan kay darajada bajarilish yoki unga amal kilinayotganligi ijtimoiy sanksiyalar orkali nazorat kilinadi. Ijtimoiy sanksiyalar - normalarning shaxe xakida namoyon bulishini nazoart kiluvchi jazo va raxbatlantirish mexanizmlari bulib, ularning borligi tufayli biz xar bir aloxida vaziyatlarda ijtimoiy xulk normalarini buzmaslikka, jamoatchilikning salbiy fikri ob'ektiga aylanib komaslikka xarakag kilam iz.

Xar bir aloxida shaxe jamiyat tamonidan ishlab chikilgan va kabul kilingan ijtimoiy normalar va sanksiyalarni u yoki bu ijtimoiy rollarni bajarishi mobaynida xulkida namoyon etadi. Rol- shaxsga nisbatan shunday tushunchaki, uning konkert xayotiy vaziyatlaridagi xukuk va burchlaridan iborat xarakatlari majmuini bildiradi. Masalan, talaba rolini oladigan bulsak, uni bajarish - u yoki bu oliy ukuv yurtida taxsil olish, uning moddiy bazasidan foydalanish, utubxonasiga a'zo bulish, stependiya olib, ma'muriyatning ijtimoiy ximoyasida bulish kabi kator xukuklar bilan birgalikda usha oliygox ichki tartib - intizomi normalariga so'zsiz buysunish, darslarga uz vaktida

kelish, reyting baxolov talablari doirasida kundalik uzlashtirish normalarini bajarish amaliyotda bulish, dekanatning bergan jamoatchilik topshiriklarini xam bajarish kabi kator burchlarini xam ichiga oladi. Bu rol uning uyga borgach bajaradigan «farzandlik» roli (ota va ona, yakin karindoshlar oldida) talab va imtiyozlaridan fark kiladi. Ya'ni, konkert shaxsning uziga xosligi va qaytarilmasligi u bajaradigan turli-tuman ijtimoiy rollarning xarakterlaridan kelib chikadi. Shunga kura kimdir «tartibli, ba'mani, fozil, axlokli va odobli» deyilsa, kimdir ba'mani, bebosh, uzgaruvchan, ikkiyuzlamachi (ya'ni, bir sharoitda juda kobil, boshka erda - betartib) degan xayotiy mavkega ega bulib koladi.

Xozirgi ijtimoiy - iktisodiy vaziyat va bozor munosabatlari sharoitidagi rakobat muxiti shaxsdan bir vaktning uzida kator kobiliyatlar va malakalarni talab kilmokdaki, ayniksa, yoshlar uzgaruvchan sharoitlarga tezrok moslashish uchun ba'zan bir-biriga zid xislatlarni xam xulkda namoyon kilishga majbur bulishmokda. Masalan, yosh oila boshligi, talaba, ota-onalarga moddiy jixatdan karam bulmaslik uchun, bir vaktning uzida xam itoatkor, intizomli talaba va ishdan keyin esa - chakkon va uddaburon, tadbirkor, tijoratchilik bilan shugullanishga majbur bulishi mumkin. Bu xolat tabiiy, shaxsdan kuchli iroda, doimiy intiluvchanlik va uz ustidan mo`tassil ishlashni talab kiladi.

Shaxsning uzi, uz xulk-atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavkeini tasavvur kilishdan xosil bulgan obraz — «MEN» - obrazi deb atalib, uning kanchalik adekvatligi va reallikka yakinligi shaxe barkamolligining mezonlaridan xisoblanadi.

«Men» - obrazining ijtimoiy psixologik axamiyati shundaki, u shaxe tarbiyasining va tarbiyalanganligining muxim olmillaridan xisoblanadi.

Uz-uzini anglash, uzidagi mavjud sifatlarni baxolash jarayoni kupincha konkert shaxe tamonidan ogir kechadi, ya'ni inson tabiati shundayki, u uzidagi usha jamiyat normlariga tugri kelmaydi, nomakul sifatlarni anglamaslikka, ularni «yashirishga» xarakat kiladi, xattoki, bunday tasavvur va bilimlar ongsizlik soxasiga sikib chikarariladi (avstraliyalik olim Z.Freyd nazariyasiga kura). Bu ataylab kilinadigan ish bulmay. u xar bir shaxsdagi uz shaxsiyatini uziga xos ximoya kilish mexanizmidir. Bunday ximoya mexanizmi shaxsni kupincha turli xil yomon asoratlardan, xissiy

kechinmalardan asraydi. Lekin shuni aloxida ta'kidlash lozimki, «Men» -obrazining ijlbii yoki salbiyligida Yana usha shaxsni urab turgan tashki muxit, uzgalar va ularning munosabati katta rol uynaydi. Odam uzgalarga karb, guyoki oynada uzini kurganday tasavvur kiladi. Bu jarayon psixologiyada refleksiya deb ataladi. Uning moxiyati - aynan uziga uxshash omillar obrazi orkali uzi tugrisidagi obrazni shukllantirish, jonlantirishdir.

Refleksiya «Men» - obrazi egasining ongiga taallukli jarayondir. Masalan, kuchada bir tanishishngizni uchratib koldingiz. Siz tinmay unga uz yutuklarinigiz va mashgulotlaringiz xakida gapirmokdasiz. Lekin gap bilan bulib, uning kaergadir shoshayotganligiga e'tibor bermadingiz. Shu narsani siz uning betokatlik bilan sizni tinglayotganligidan, xayoli boshka erda turganligidan bilib kolasiz vash u orkali Ayni shu paytda «maxmadona, lakmarok» bulib kolganingizni sezasiz. Keyingi safar shu urtosingiz bilan uchrashganda, oldingi xatoga yul kuymaslik uchun «Urtok shoshmayapsanmi?» deb surab xam kuyasiz. Anna shu ilgarigi refleksning natijasidir. Ya'ni, suxbatdosh urniga turib, uzingizga tashlangan nazar («men unga kanday kurinayapman?») -refleksdir.

«Men» - obrazi va uzini-uzi baxolash. «Men» - obrazi asosida xam bir shaxsda uzi-uziga nisbatan baxolar tizimi shaklanadiki, bu tizim xam obrazga moe tarzda xar xil bulishi mumkin. Uz-uziga nisbatan baxo turli sifatlar va shaxsning ortirilgan tajribasi asosida yotgan yutuklariga boglik xolda turlicha bulishi mumkin. Ya'ni Ayni biror ish, yutuk yuzasidan ortib ketsa, boshkasi ta'sirida - aksincha, pastlab ketishi mumkin. Bu baxo aslida shaxsga boshkalarning real munosabatlariga boglik bulsa-da, aslida u shaxe ongi tizimidagi mezonlarga, ya'ni, uning uzi sub'ektiv tarzda shu munosabatlarni kanchalik kadrlashiga boglik tarzda shakllanadi.

Uz-uziga baxo nafakat xakikatga yakin (adekvat), tugri bulishi, balki u o`ta past yoki yukori xam bulishi mumkin.

Uz-uziga baxoning past bulishi kupincha atrofdagilarning shaxsga nisbatan kuyayotgan talablarining o`ta ortikligi, ularni uddalay olmaslik, turli xil e'tirozlarning doimiy tarzda bildirilishi, ishda, ukishda va muomila jarayonidagi muvaffakkiiyatsizliklar oqibatida xosil bulishi mumkin. Bunday usmir yoki katta odam

xam, doimo tushkunlik xolatiga tushib kolishi, atrofdagilarning chetrokda yurishga xarakat kilishi, uzining kuchi va kobiliyatlariga ishonchsizlik kayfiyatida bulishi bilan ajralib turadi va bora-bora shaxsda kator salbiysifatlar va xatti-xarkatlarning paydo bulishiga olib keladi. Xattoki, bunday xolat suitsidal xarkatlar, ya'ni uz joniga kasd kilish, real borligidan «kochishga» intilish psixologiyasini xam keltirib chikarish xam mumkin.

Uz-uziga baxo o`ta yukori xam shaxe xulk-atvoriga yaxshi ta'sir kursatmaydi. Chunki, u xam shaxe yutuklari yoki undagi sifatlarning boshkalar tamonidan sun'iy tarzda burtirilishi, nourin maktovlar, turli kiyinchiliklarni chetlab utishga intilish tufayli shaklanadi. Anna shunday sharoitda paydo buladigan psixologik xolat «noadekvatlilik effekti» deb atalib, uning oqibatidagi shaxe xattoki maglubiyatga uchraganda yoki uzida nochorlik, ukuvsizliklarni sezganda xam buning sababini uzgalarda deb biladi va shunga uzini ishontiradi xam (masalan, «xalakit berdi-da», «falonchi bulmaganida» kabi baxonalar kupayadi). Ya'ni. nimaiki bulmasin, aybdor uzi emas, atrofdagilar, sharoit, takdir aybdor. Bundaylar xakida bora-bora odamlar «oyogi erdan uzilgan», «manmansiragan», «dimogdor» kabi sifatlari bilan gapira boshlaydilar. Demak, uz-uziga baxo realistik, adekvat, tugri bulishi kerak.

Demak, uz-uzini baxolash - uz-uzini tarbiyalashning muxim mezonidir. Uz-uzini tarbiyalash omillari va mexanizmlariga esa, kuyidagilar kiradi:

- uz-uzi bilan mulokat (uzini konkert tarbiya ob'ekti sifatida idrok eti shva uzi bilan mulokat tashkil etish sifatida);
- uz-uzini ishontirish (uz imkoniyatlari, kuchi va irodasiga ishonish orkali, ijobiy xulk normalariga buysundirish);
- uz-uziga buyruk berish (tigiz va ekstremal xolatlarda uzini kulga olish va makbul yulga uzini chorlay olish sifatida);
- uz-uziga ta'sir yoki augosuggestiya (ijobiy normalardan kelib chikkan xolda uzida ma'kul ustanovkalarini shakllantirish);
- ichki intizom - uz-uzini boshqarishning muxim mezoni, xar doim xar erda uzining barcha

xarkatlarini muntazam ravishda korrektsiya kili shva boshqarish uchun zarur sifat. Yukoridagi uz-uzini boshqarish mexanizmlari orasida psixologik nuktai nazardan uz-uzini boshqarish mexanizmlari orasida psixologik nuktai nazardan uz-uzi bilan amalga oshiriladigan ichki dialog aloxida urin to`tadi. Uz-uzi bilan dialog - oddiy til bilan aytganda, uzi bilan uzi gaplashadilar.

Shaxsning kandy sifatlariga ega ekanligi, undagi baxolarning ob'ektivligiga boglik tarzda uz-uzi bilan mulokatga kirishib, jadvaldagiga muvofik shaxe uzini nazorat kila oladi. Shuning uchun xam xayotda shunday kishilar uchraydiki, katta majlisda ishi tankidga uchrasa xam, uziga xolis baxo berib, kerakli tugri xulosalar chikara oladi, shunday odamlar xam borki, arzimagan xatolik uchun uz «ich-etini eb tashlaydi». Bu usha ichki dialogning xar kimda xar xil ekanligidan darak beruvchi faktlardir.

Uspirinlik davrida shaxe ijtimoiylashuvi. Shaxe, uning dunyoni bilish, uzini va atrofidagi insoniy munosabatlarni bilish, tushunishi, uzaro munosabatlar jarayonida uzidagi takrorlanmas individuallikni namoyon kilishi xamda Ushbu jarayonlarning yoshga va jinsga boglik ayrim jixatlarini taxlil kilish bizga umumiy ravishda shaxe jamiyatda yashaydigan ijtimoiy mavjudotdir, degan xulosani qaytarishga imkon beradi. Ya'ni, u tug`ilgan onidan boshlab uziga uxshash insonlar kurshovida buladi va uning butun ruxiy potentsiali anna shu ijtimoiy muxitda namoyon buladi. Chunki agar insonning ontogeneik taraqqiyoti tarixiga e'tibor beradigan bulsak, xali gapirmay turib, odam bolasi uziga uxshash mavjudotlar davrasiga tushadi va keyingina ijtimoiy mulokatning barcha kurinishlarining faol ob'ekti va sub'ektiga aylanadi. Shu nuktai nazardan, xar birmizning jamiyatdagi urnimiz. uning kanon va kandy sharoitlarda paydo bulgani, jamiyatga kushilib yashashimizning psixologik mexanizmlari fanning muxim vazifalaridan biridir. Bu jarayon psixologiyada ijtimoiylashuv yoki sotsializatsiya deb yuritiladi.

Shaxsga tallukli bo`lgan fazilatlarining eng muximi shuki, u shu tashki, ijtimoiy tasirlarni o`z ongi va idroki bilan kabo`l qilib (ob'ektni), sungra shu tasirlarning sub'ekti sifatida faoliyat kursatadi. Oddiy qilib aytganda, inson bolasi ilk yoshlikdanok «mening xayotim», «bizning Dune» degan ijtimoiy muxitga tushadi. Bu

muxi tusha biz bilagn va har kuni xis qiladigan siyosat, xukuk, axlok, olamidir. Bu muxit kelishuvlar, tortishuvlar, xamkorliklar, an'analar, udumlar, turli xil tillar olami bo`lib, undagi kuplab koidalarga kupchilik mutlok kushiladi, ba'zilar qisman kushiladi. Bu shunday koidalar va normalar olamiki, ularga buysunmaslik jamiyat tamonidan koralanadi, ta'kiblanadi. hulardan kelib chiqadigan xulosa shuki, shaxs jamiyatga nisbatan barcha tartib koidalarni kabo`l qiluvchi sub'ekt bo`lsa, jamiyat ijtimoiy intizom va tartibning, madaniyatning mufassal ko`rinishidir.

haxs tushunchasi keng va kup kirralidir. Shaxsni u yoki bu aspektda urganish bilan bir qancha gumanitar fanlarning shugillanishi bejiz emas, tarixiy materializm, siyosiy iktisod(shaxsni ijtimoiy munosabatlar setsemasida moddiy boyliklar ishlab chikaruvchi va itsemol qiluvchi sifatida o`rganadi.), pedogogika (inson tarbiyasining tashkiliy tamonlari, printsiplari, yo`llari va vositalarini o`rganadi) va boshkalar. Psixologiya boshka fanlar bilan bevosita bog`liq xolda inson shaxsini ichki tamondan, ichki dunyosi tamonidan, boshqacha qilib aytganda, uning psixik faoliyatini o`rganadi.

haxs so`zi zaminida nimani tushunmok kerak?

Jamiyatning a'zosi xisoblangan va ong egasi bo`lgan har bir konkert odam shaxsdir. haxs xamma vakt muayyan shaxsiy faqat o`zigagina xos bo`lgan murakkab individual sifatlar va xususiyatlarning va murakkab xususiyatlar inson xulkida, boshka kishilarga munosabatda, uning irodasi va harakter xislatlarida, qobiliyatlari, mayllari va qiziqishlarida ifodalanadi.

Shunday qilib, har bir inson shaxsi ijtimoiy va individual, umumiy va xususiy xolatlarni o`zida mujassamlashtiradi. Tug`ilishdan normal ijtimoiy muxitda yashagan odam, V.G.Blenskiy iborasi bilan aytganda «xakikiy inson» bo`lib tarbiyalanishi, ya'ni har bir konkert xolda xam aks ettirish faqat ayrim shaxs formalariga aloqador bo`lgan takdirda xam, o`z intilishlari va o`zi davrining buyuk vazifalari uchun ko`rashni aks ettiruvchi shaxs bo`lishi mumkin va lozim.

Qiziqishlar deganda, odatda, shaxsning kupincha bilish maslagida ifodalanadigan, predmet va xodisalarga nisbatan bo`lgan maxsus munosabati tushiniladi.

qiziqishlar odatda, predmetning yoki faoliyat turining emotsional jixatdan kurkamligiga asoslanadi. Bu kurkamlik xamisha extiyojlar, qobiliyatlar, burchini anglash bilan o`zviy ravishda boglanib ketadi. Darvoke, qiziqishning shakllanish protsessii emotsional kurkamlikdan xam, muxtojlikni, burchni anglashdan xam bog`lanishi va keyinchalik ular emotsional (xis tuyg`ular) bilan mutsapxkamlanib ketishi xam mumkin.

qiziqishning fiziologik asosini diqqatniki singari bosh miya putslogidagi, miya kobigining faqat shu soxasi bilan bog`liq bo`lgan ijodiy faoliyat va barqaror diqqatni ta'minlovchi optimal ko`zgalish markazidir deb taxmin qilish kerak. qiziqishlarda dominanta (optimal ko`zgalish markazi), diqqat yoki kiska muddatli xavasdan farqli ularok, barqaror harakterga egadir.

qiziqish xam o`z mazmuniga ko`ra extiyojlar kabi moddiy (narsalar, ovkat, kiyim kechak va xakozo) va ma'naviy (Fan-san'at uchun xizmat qiladigan, ijtimoiy va xakazo) qiziqishlarga bo`linadi.

Faoliyat prtsessining o`ziga qiziqishlar (shungdek bilishning) bevosita qiziqishlar deb ataladi. Faoliyat (ukituvchi bo`lish uchun intsitutni tugatshi, trnzitsor priyomnikni yurib ketayotganda eshitish uchun to`zatish va xakazo)ning moxiyatiga qaratilgan qiziqishlar esa vositali qiziqishlar deb ataladi

Kizikshlarning chukurligi, barqarorligi, faolligi shungdek ularning faolityatidagi roli turlicha bo`lishi mumkin.

Kupchilik kishliarda turli qiziqishlar orasidan shaxsning kiyofasini belgilab beruvchi asosiy qiziqish ajralib turadi. Masalan, katta yoshdagi o`quvchilarda, ba'zan usmirlarda o`quvch ikzikishlari orasida u yoki bu predmetga – adabiyotga, fizikaga; sport turlaridan gimnatsikaga, lijaga; etsetikadan-rassomlikka, mo`zikaga va xakaxolarga nisbatan qiziqish asosiy qiziqish bo`lib Kurina boshlaydi.

qiziqishlar faoliyatida yuzaga kelib va shgaqllanib bir tamondan, faoliyatga bog`liq bo`lsa, ikkinchi tamondan insonning butun xulkida o`zining muayyan izini koldiradi. Masalan. Faoliyatning harakteriga karab u yoki bu professional qiziqishlar shakllanadi, muayyan kasbni (faoliyat shakllari) tanlab olish esa o`z navbatida qiziqishlarning mavjudligiga bog`liq.

Usib kelayotgan avlodni tarbiyalash va unga ma'lumot berishda uni turmushga, ijtimoiy foydali faoliyatga tayyorlashda xal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan o'quv kizikshlari muxim rol uynaydi.

O'quvchilarda, odatda turli o'quv predmetlariga qiziqish, ukishga qiziqishi bilan mos keladi, mexnat tarbiyasiga asos bo'ladi, chunki bu yoshda ukish mexnat faoliyatining asosiy shakli sifatida ko'zga tashlanadi.

qiziqishlarning ukish va mexnatdagi muxim ahamiyatini ta'kidlash bilan birga, bu masalaning boshka tamonini, ayniksa ukish va mexnat xamma vakt yokimli va engil emasligini unitmaslik lozim. Bundan tashkari, xatto yokimli mexnat kizikarli ukishda xam qiyinchiliklarni engib o'tish, zur berib kuch sarflash talab kilinadi.

Maktab yoshida o'quv-tarbiya ishlarini tegishli ravishda tashkil kilinsa shaxsining garmonik rivojlanishida muxim ahamiyatga ega bo'lgan sprotga qiziqishlar aniq namoyon bo'ladi.

Inson xayotida va uning shaxsning shakllanishida qiziqishlar bekiyos ahamiyatga egadir. Extiyoj kabi qiziqishlar xam shaxsning xayotiy yo'nalishini belgilab va ifodala4b beradilar hamda faoliyatning motivlari bo'lib xzizmat qiladi. E'tikod va ideallar bilan o'zviy boglangan kizikshlar shaxs xayotini mazmundor va maqsadga intiluvchan qiladi.

Kup jixatdan maktabdagi barcha o'quv-tarbiya ishlarining muvaffakiyati ma'lum darajada o'quvchilar qiziqishlarining mazmuni va yo'nalishiga bog'liqdir. O'quvchilarning muayyan o'quv va ijtimoiy faoliyatga kiziksh faqat bilimlarni o'zlashtirish uchun emas, balki e'tikod va ideallarni shakllantirish, dunyokarashni xosil qilish uchun xam maksimal darajada kulay shart sharoitlar yaratadi.

Kizikshlarning insonning emotsional-irodaviy aktivligi bilan o'zviy bog'liqligini xisobga olar ekanmiz, kizkishlarni shakllantirish va tarbiyalashni iroda va emotsiyalarni tarbiyalashdan ajratib kuymaslik kerak. U yoki bu qiziqishlarning rivojlanishini kup jixatdan o'z navbatida kishi faoliyatida shakllanadigan va rivojlanadigan qobiliyatlarga bog'liq. Masalan, rasmga qiziqish faoliyatini shu turiga bo'lgan qobiliyatning rivojiga ta'sir kursatishi yoki, aksincha, mavjud musika

qobiliyati o`quvchi faqat musika bilan shugullana boshlaganida namoyon bo`lishi mumkin.

Bolalarda kasblarga qiziqish juda erta uygonadi. Avvalo bu kattalarning, ayniksa ota-onalarning tanish bilishlarning, yaqin kishilarning kasbiga bog`liqdir.

Shaxsning e'tikodi va ideallari uning dunyokarashiga o`zviy ravishda bog`liq bo`ladi., ular dunyokarash bilan belgilanibgina qolmasdan, shuningdek ma'lum darajada dunyokarashga kushilib ketadi. Uning muxim komponentiga (tarkibiy ksmiga) aylanib koladi. E'tikod va ideallar muayyan dunyokarash asosida xosil bo`lish bilan birga bu dunyokarashni shakllantiradi xam.

Adabiyotlar ro`yxati:

1. G`oziyev E.G`. *Umumiy psixologiya. 1-kitob. Psixologiya bo`limi talabalari uchun o`quv qo`lanma. T. O`zMU. 2003 y.*
2. G`oziyev E.G`. *Psixologiya. –T., O`zMU «Universitet», 2003.*
3. G`oziyev E.G`. *Tafakkur psixologiyasi. Toshkent: Universitet, 1990.*
4. G`oziyev E.G`. *Xotira psixologiyasi. –ToshDu, 1994.*
5. *Bernshteyn N.A. Fiziologiya dvijeniy i aktivnost. M., 1990.*
6. *Vasilyuk F. YE. Psixologiya perejivaniya. M., 1984.*
7. *Vvedeniye v psixologiyu/ Pod obshey red. A. V. Petrovskogo. M., 1997.*
8. *Vilyunas V. K. Psixologicheskiye mexanizmi motivatsii cheloveka. M., 1990.*
9. *Vigotskiy S.L. Sobraniye sochineniy v 6-ti tomax. M. 1984.*
10. *Galperin P.Y. Vvedeniye v psixologiyu. M., 1976.*

O`zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi
O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi

**TOSHKENT DAVLAT MILLIY RAQS VA
XOREOGRAFIYA OLIY MAKTABI**

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlar”
kafedrası**

**“Pedagogika. Psixologiya”
fanidan**

Mustaqil ish

MAVZU:

*Psixologiyada shaxs va jamiyat
muammolari*

Topshirdi: “San`atshunoslik” bo`limi
2-kurs talabasi Shamsiyeva D.
Qabul qildi: Sh.S.Xamidova

Toshkent 2016 yil